

KICHIK YOSHDAGI O'QUVCHILARNING NUTQIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASIGA DOIR USULLAR

Karimova Shaxloxon

Oriental universiteti dotsenti, PhD

shkarimova1984@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0000-5380-4852>

Zohidova Zulayho

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2 kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yozma matn ustida ishlash orqali nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish masalasi yoritilgan. Tadqiqotda yozma nutqning mazmuni, tuzilishi va ahamiyati tahlil qilinib, uning shaxsning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishdagi o'rni asoslab berilgan. Muallif tomonidan yozma matn bilan ishlashning samarali metod va usullari ko'rsatib berilgan bo'lib, ular o'quvchi va talabalar nutqini rivojlantirishga xizmat qiladi. Maqolada yozma matn ustida ishlash jarayonida tahlil, qayta ishlash, mustaqil fikr bayon etish, matn yaratish ko'nikmalarini shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar, interfaol metodlar va feedback (teskari aloqa) mexanizmlarining ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, yozma matn bilan tizimli ishlash o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish, ularning fikrni aniq va mantiqan ifodalash qobiliyatini shakllantirishda samarali vosita ekanligi aniqlangan. Maqola natijalari ta'lim jarayonida qo'llash uchun amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: yozma matn, nutqiy kompetensiya, yozma nutq, interfaol metodlar, feedback, tahlil, mustaqil fikrlash, kommunikativ yondashuv.

Аннотация: В данной статье рассматривается проблема развития речевых компетенций посредством работы с письменным текстом. В исследовании анализируются содержание, структура и значение письменной речи, а также обосновывается её роль в формировании коммуникативной компетенции личности. Автором представлены эффективные методы и приёмы работы с письменным текстом, способствующие развитию речи учащихся и студентов.

В статье особое внимание уделено формированию навыков анализа, переработки информации, самостоятельного изложения мыслей и создания текста в процессе работы с письменным материалом. Также раскрывается значение современных педагогических подходов, интерактивных методов и механизмов обратной связи (feedback) в развитии речевой компетенции.

По результатам исследования установлено, что систематическая работа с письменным текстом является эффективным средством развития устной и письменной речи, а также формирования у обучающихся способности логично и чётко выражать свои мысли. Результаты исследования имеют практическое значение для образовательного процесса.

Ключевые слова: письменный текст, речевая компетенция, письменная речь, интерактивные методы, обратная связь, анализ, самостоятельное мышление, коммуникативный подход.

ABSTRACT

This article discusses the issue of developing speech competencies through working with written texts. The study analyzes the content, structure, and significance of written speech and substantiates its role in the formation of communicative competence. The author presents effective methods and techniques for working with written texts that contribute to the development of students' speech skills. Particular attention is paid to the formation of skills such as analysis, information processing, independent expression of ideas, and text creation in the process of working with written materials. The article also highlights the importance of modern pedagogical approaches, interactive methods, and feedback mechanisms in developing speech competence. The results of the study show that systematic work with written texts is an effective means of developing both oral and written speech, as well as the ability to express thoughts clearly and logically. The findings have practical significance for the educational process.

Keywords: written text, speech competence, written speech, interactive methods, feedback, analysis, independent thinking, communicative approach.

KIRISH. Hozirgi globallashuv va axborotlashuv sharoitida ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan asosiy talablardan biri – bu shaxsning kommunikativ kompetensiyasini, xususan, nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishdan iboratdir. Jamiyat taraqqiyoti, axborot oqimining keskin ortib borishi va ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi har bir shaxsdan o'z fikrini aniq, mantiqan izchil va asosli tarzda bayon eta olishni talab etmoqda. Shu jihatdan, yozma nutqni rivojlantirish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Yozma nutq – bu shaxsning tafakkuri, dunyoqarashi va bilim darajasini aks ettiruvchi muhim vositalardan biridir. Ayniqsa, yozma matn ustida ishlash jarayoni o'quvchi va talabalarda tahliliy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, axborotni qayta ishlash hamda uni tizimli ravishda ifodalash ko'nikmalarini shakllantiradi. Shu bilan birga, yozma matn bilan ishlash nutqiy kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismlari – mazmun, mantiqiylik, aniqlik va ifodalilikni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida yozma matn ustida ishlashga yetarlicha e'tibor qaratilayotgan bo'lsa-da, bu borada mavjud metodik yondashuvlarni takomillashtirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida yangi samarali usullarni ishlab chiqish zarurati saqlanib qolmoqda. Xususan, interfaol metodlar, muammoli ta'lim, hamkorlikda o'qitish va feedback (teskari aloqa) mexanizmlaridan foydalanish orqali yozma nutqni rivojlantirish imkoniyatlari yetarlicha o'rganilmagan. Mazkur maqolada yozma matn ustida ishlash orqali nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish masalasi ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – yozma matn bilan ishlash jarayonida o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali metod va usullarni aniqlash hamda ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- yozma nutq va nutqiy kompetensiya tushunchalarining nazariy asoslarini tahlil qilish;
- yozma matn bilan ishlashning mavjud metod va yondashuvlarini o'rganish;
- nutqiy kompetensiyani rivojlantirishda samarali metodlarni aniqlash;
- zamonaviy pedagogik texnologiyalar, xususan, feedback usulining ahamiyatini asoslash.

Mazkur tadqiqot natijalari ta'lim jarayonida yozma nutqni rivojlantirish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi hamda amaliy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUNING O'RGANILGANLIK DARAJASI

Yozma nutq va nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish masalasi pedagogika va metodika fanlarida muhim ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida keng o'rganilgan. Xususan, nutq faoliyati, uning turlari va rivojlanish qonuniyatlari psixolog va pedagog olimlar tomonidan chuqur tadqiq etilgan.

Shu bilan birga, yozma matn ustida ishlash orqali nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirish masalasi hali to'liq o'rganilmagan bo'lib, ayniqsa uni zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida takomillashtirish zarurati mavjud. Mazkur holat ushbu tadqiqot mavzusining dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi.

“Til, eng avvalo, insonning ichki dunyosi, olamni idrok qilishi, tafakkur tarzi va kamolotini belgilaydigan vosita. Tilga ko'pincha aloqa vositasi sifatida qarashadi. Aslida bu tilning mohiyatini to'g'ri anglamaslik natijasida paydo bo'lgan noto'g'ri qarash. Til faqat aloqa vositasigina emas, u insonning tafakkur tarzini tayin qiladigan, dunyoni bilishi, dunyoni ko'rishi, eshitishi vositasi hamdir.”¹

Insonning birlamchi til malakasi og'zaki nutqdir. Og'zaki nutqni rivojlantirish tilning qolgan shakllarini rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Yozma nutq bilan ko'p ishlash og'zaki nutq o'z-o'zidan rivojlanib qolishga olib kelmaydi, chunki yozma nutq va og'zaki nutq mazmun jihatdan bir nuqtada

birlashsa-da, ularning amalga oshish jarayon inson ongda boshqa-boshqa mexanizmning ishlash orqali ta'minlanadi. Shuning uchun ularning har biriga alohida e'tibor qaratishi zarur.

Boshlang'ich sinflarda ta'lim-tarbiyaning zamon talablari darajasida takomillashtirilishi, yoshlarning ma'naviy barkamol shaxslar bo'lib yetishida asosiy omillardan hisoblanadi. Buning uchun o'qituvchilarning ilmiy-pedagogik va metodik tayyorgarligini oshirish, darslarni ilmiy jihatdan takomillashtirish, ilg'or va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga to'liq joriy qilish to'grisida ko'plab fikrlar bayon etilmoqda.

Zero, boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning ham ta'limiy ham tarbiyaviy ahamiyat kasb etuvchi dars maqsadiga erishishda o'quvchilarning imloviy savodxonligi, uni yanada takomillashtirish usullaridan foydalanish va darslarni tashkil qilish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar nutqiy va imloviy savodxonlikka ega bo'ladigan ona tili ta'limida o'quvchi o'z fikrlarini ravon bayon qila oladigan bo'lishi va to'g'ri savodli yoza oladigan bo'lishi kerak. Shu jihatdan, boshlang'ich sinflarning ona tili darslarida o'quvchilarning imloviy bilimlarini bosqichma-bosqich, tadrijiy ravishda takomillashtirib borish lozim. Shunga ko'ra, ona tili darslarida o'quvchilarning imloviy bilimlarini takomillashtirishning eng samarali usul va metodlarini qo'llash bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi oldida turgan muhim vazifa hisoblanadi. Bu muhim vazifalarni esa bilim, malakalari yetarli o'qituvchilar amalga oshiradi. Demak, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining yozma va og'zaki nutqini takomillashtirish masalasi esa birinchi galdagi ustuvor vazifalardir.

Fikrlarimizni amaldagi yangi darsliklar va ularda o'qitishdagi asosiy vazifalarga diqqat qaratsak:

“Ona tili va o'qish savodxonligi” darsligi ² da til o'qitishning o'rganuvchiga asoslangan yondashuvlar turkumidan foydalaniladi. Bu yondashuv tilning real hayotiy vaziyatlarda qo'llanishi va ana shu vaziyatlarda o'rganuvchi sezadigan ehtiyojlarni qondirishga asoslanadi.

Tanlangan topshiriqlar vositasida o'qituvchi o'quvchlarni turli hayotiy vaziyatlarda grammatik jihatdan to'g'ri va kommunikativ jihatdan erkin so'zlay oladigan darajaga olib chiqishni maqsad qilib qo'yishi muhimdir. O'quvchining tilni qo'llashdagi real ehtiyoj (ijtimoiy muloqot, akademik ta'lim) hisobga olingan va zaruriy lingvistik qurilmalar turli nutqiy vaziyatlarda berilgan. Grammatik bilimni yetkazish insonning til malakasi og'zaki nutqni tushunish, yozma nutqni tushunish, fikrni og'zaki va yozma ifodalash orqali shakllanishi lmiy isbotlangan. Ana shundan kelib chiqib, darsliklar yaratishda grammatik bilim alohida emas, nutqiy vaziyat ichida berilishi haqidagi qarash asos qilib olingan. Bunda til o'qitishga

kommunikativ yondashuvdan samarali foydalanilgan. Kommunikativ yondashuvning mohiyati real vaziyatda nutqni tushunish va o'z nutqini to'g'ri ifodalashga o'rgatishdir.

Boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning ona tili ta'limi bo'yicha tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar quyidagi uch parametrli standart mezonni orqali aks ettiriladi: o'qish texnikasi, o'zgalar fikrini va matn mazmunini anglash hamda fikrni yozma shaklda bayon etish malakasi murakkab jarayon bo'lib, ona tili ta'limining maqsadi shu parametrda mujassamlashadi va o'quvchi tomonidan yaratilgan matnda aks etadi. Bu parametr bo'yicha ta'lim sifatining natijasini baholashda o'qituvchi tomonidan quyidagi ko'nikmalarning darajasi aniqlanadi:

- fikrni mantiqiy izchillikda ifodalay olish;
- mavzuning murakkablik darajasi (sodda, murakkab, aniq va hokazo);
- tavsifning mavzuga muvofiq va mukammal bo'lishi;
- tavsifda tilning ifoda vositalaridan foydalana bilishi;
- imloviy (yozma) savodxon bo'lishi.³

Quyida yozma savodxonlikni oshirishga qaratilgan didaktik usullardan tavsiya qilamiz. "So'zlarning tuzilishi jihatdan turlari" mavzusi ⁴ ni mustahkamlash yuzasidan amaliy mashg'ulot misolida

Avval matn audio shaklda o'qib eshittiriladi.

Mehnat bilan suyagi qotgan, mehnat tufayli izzat-u hurmat ko'rgan har bir ota-ona bolasining ham mehnat bilan yashashini, mehnat bilan el-yurt oldida sharaf topishini xohlaydi. Shu tufayli bolalarining kelajagini o'ylab, ularni mushtumdek paytlaridan katta-kichik mehnatga o'rgatadilar. To'g'ri tarbiyaning eng ta'sirli, eng samarali usuli ham shu, ammo ba'zi bolalar ro'zg'or ishlaridan ham bosh tortadilar. Otalari yo onalariga shafqatsiz, berahm kishilarga, hatto quldorlarga qaraganday o'qrayib, alang-jalang yeb yuborgilari kelguday bo'lib qaraydilar. Malol kelib, qo'l uchida qilgan ishlaridan ota-onalari norozi bo'lishsa, uzr so'rash o'rniga to'ng'illab beradilar. Ota-ona bolalarining mehnatiga hamma vaqt, erta-kech ham muhtoj bo'lavermas, lekin bolani yoshligidan ishga o'rgatish, mehnatga ko'niktirish zimmalaridagi burch ekanligi shunday yo'l tutishga majbur qiladi.

Bilmaganini bilishni, o'rgatilganini o'rganishni xohlamagan kaltabin yoshlarga qarab shoir degan ekan:

Kimki o'rganishni or bildi, Har qadamda o'zni xor bildi.

1. Tinglab tushunish mashqi.

Audiomatn eshittirib bo'lingach, quyidagi savollar beriladi:

1. Matnda qaysi insoniy xislatlar haqida so'z yuritilgan?
2. Bilmaganini bilishni, o'rgatilganini o'rganishni xohlamagan yoshlarga

qanday salbiy sifat qo`shilyapti?

3. To`g`ri tarbiyaning eng ta`sirli, eng samarali usuli qanday ekan? Va uni asosan kimlar amalga oshiruvchi shaxslar kim?

2. Og`zaki nutqni o`stirish mashqi

1. Siz matnga qanday nom topgan bo`lar edingiz?
2. Mehnatsevarlik tushunchasini qanday izohlaysiz?
3. Mehnat va mehnatsevarlik haqida qanday o`zbek maqollarini bilasiz?
4. Mehnatkash insozlar jasorati haqida, mehnatning foydalari to`grisida yozilgan qaysi badiiy asarlarni esladingiz?

5. Bu asarlardan siz qanday xulosa chiqargansiz?

6. Qaysi qo`l mehnati bilan shug`ullanasiz?

3. Yozma nutqni rivojlantiruvchi mashq

1. Matnda aytilishi va yozilishi farqlanadigan so`zlarni ajrating va ikki ustunga ajratib yozing.

Talafuziga ko`ra	Yozilishiga ko`ra
Shavqat	Shafqat
Mushtim	Mushtum
Burj	Burch
To`ng`illap	To`ng`illab
Uzur	Uzr

Lug`at ustida ishlash. Xorijiy tajribada ham til egalarining muayyan til malakalarini egallashda asosiy yordamchi vosita lug`atlar ekanligi e`tirof etilib, savodxonlik borasida amaliy foydalari ko`p qayd etilgan¹.

1. Matnda qaysi insoniy xislatlar haqida so`z yuritilgan?

2. Bilmaganini bilishni, o`rgatilganini o`rganishni xohlamagan yoshlarga qanday salbiy sifat qo`shilyapti?

3. To`g`ri tarbiyaning eng ta`sirli, eng samarali usuli qanday ekan? Va uni asosan kimlar amalga oshiruvchi shaxslar kim?

4. Og`zaki nutqni o`stirish mashqi

7. Siz matnga qanday nom topgan bo`lar edingiz?

8. Mehnatsevarlik tushunchasini qanday izohlaysiz?

¹ Isabel Beck, Charles Perfetti, Margaret G.Mckewon. Effects of long-term vocabulary instruction on lexical access and reading comprehension. August 1982. Journal of Educational Psychology DOI:10.1037/0022-0663.74.4.506 August, D., Carlo, M., Dressler, C., & Snow, C. (2005). The critical role of vocabulary development for English language learners. Learning Disabilities Research and Practice, 20, 50–57

9. Mehnat va mehnatsevarlik haqida qanday o'zbek maqollarini bilasiz?
10. Mehnatkash insozlar jasorati haqida, mehnatning foydalari to'grisida yozilgan qaysi badiiy asarlarni esladingiz?
11. Bu asarlardan siz qanday xulosa chiqargansiz?
12. Qaysi qo'l mehnati bilan shug'ullanasiz?
5. Yozma nutqni rivojlantiruvchi mashq
2. Matnda aytilishi va yozilishi farqlanadigan so'zlarni ajrating va ikki ustunga ajratib yozing.

Talafuziga ko'ra	Yozilishiga ko'ra
Shavqat	Shafqat
Mushtim	Mushtum
Burj	Burch
To'ng'illap	To'ng'illab
Uzur	Uzr

3. Lug'at ustida ishlash. Xorijiy tajribada ham til egalarining muayyan til malakalarini egallashda asosiy yordamchi vosita lug'atlar ekanligi e'tirof etilib, savodxonlik borasida amaliy foydalari ko'p qayd etilgan.⁵

Grammatik bilimni mustahkamlovchi mashq

1. Matndan so'zlarning tuzilishiga ko'ra faqat juft so'zlarni ajratib yozing. Hosil bo'lishiga qiqqat qiling va so'z turkumini aniqlang. Juft so'z bog'lanib kelgan so'z bilan birga ko'chiring.

Masalan, ota-ona (ot so'z turkumi, bir-biriga mazmunan yaqin so'zlardan tuzilgan), alang-jalang qaraydilar (Ravish so'z turkumi, har ikki qismi atash ma'nosiga ega bo'lmagan so'zlardan hosil bo'lgan).

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, til ta'limida talabalarining, ayniqsa, boshlang'ich ta'limiy yo'nalishida tahsil oluvchilarning imloviy savodxonligini oshirishda turli didaktik usullaridan foydalanishi va darslarni interfaol metodlarga tayangan holda tashkil qilish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Nutqiy va imloviy savodxonlikka ega bo'ladigan ona tili ta'limida o'quvchi o'z fikrlarini ravon bayon qila oladigan va to'g'ri savodli yoza oladigan bo'lishi uchun avvalo, o'qituvchinin o'zi savodxonlikka erishgan bo'lishi lozim. Shu jihatdan, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning ona tili darslarida imloviy bilimlarini bosqichma-bosqich, tadrijiy ravishda takomillashtirib borishida tavsiya etgan metodik usullar habr o'qituvchi mahoratiga ko'ra sayqallanib boraveradi.

Yuqoridagi mulohazalardan xulosalarimiz quyidagicha:

1. Insonning til malakasi ogʻzaki nutqini tushunish, yozma nutqni tushunish, fikrni ogʻzaki va yozma ifodalash orqali shakllanish ilmiy isbotlangan. Ana shundan kelib chiqib, til taʼlimida grammatik qoidalarni oʻrgatibgina qolmasdan tilga muloqot jarayonida asosiy vosita ekanligini inobatga olinishiga ahamiyat qaratish muhim.

Dars jarayonlarida grammatik bilim alohida emas, nutqiy vaziyat ichida berilish haqidagi qarash asos qilib olinishi, bunda til oʻqitishga kommunikativ yondashuvdan samarali foydalanilishi oʻzlashtirishga ham ijobiy taʼsir etuvchi omillardan ekanligi oydinlashdi.

2. Kommunikativ yondashuvning mohiyati real vaziyatda oʻzgalar nutqini tushunishi va oʻz nutqini ravon, toʻgʻri ifodalashiga oʻrgatishdir.

3. Boshlangʻich sinf oʻquvchilari ilk savod chiqarishda chinakam savodxonlikka erishgan oʻqituvchilar qoʻlida taʼlim olishi talabalik davridanoq jiddiy eʼtibor qaratish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Maxmudov N. Til va madaniyat. - Toshkent, 2005.
2. Gʻulomova X. Husnixatga oʻrgatish metodikasi. - Toshkent, 2007.
3. Ishmuhamedov R. Innovatsion texnologiyalar yordamida taʼlim samaradorligi oshirish yoʻllari. - T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2009.
4. Zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish sharoitida innovatsiyalar. Special Issue | 2022
5. Isabel Beck, Charles Perfetti, Margaret G.Mckewon. Effects of long-term vocabulary instruction on lexical access and reading comprehension. August 1982. Journal of Educational Psychology DOI:10.1037/0022-0663.74.4.506 August, D.,
6. Carlo, M., Dressler, C., & Snow, C. (2005). The critical role of vocabulary development for English language learners. Learning Disabilities Research and Practice, 20, 50–57
7. U.Tursunov, J.Muxtorov, Sh.Rahmatullayev. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. -T.: Oʻzbekiston, 1992.
8. Kozimova N. Ona tili oʻqitish metodikasi. - Toshkent, 2009. –B.213
9. Karimova Sh. Ona tili. Darslik, Toshkent, 2024